

“O`TKAN KUNLAR” ASARIDA BADIY TASVIRNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Ataxonova Malika
ADPI talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy tasvir, uning turlari, adabiy matndagi vazifalari haqida soʻz boradi. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” asaridagi badiiy tasvirlarning pragmatik xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Аннотация. В данной статье речь пойдет о художественном изображении, его видах, функциях в литературном тексте. Также к анализу были привлечены прагматические особенности художественных образов в произведении Абдуллы Кадыри “Минувшие дни”.

Annotation. This article will talk about the artistic image, its types, functions in the literary text. Also, the pragmatic features of the artistic images in Abdullah Qadiri's “Days Gone By” were drawn into the analysis.

Kalit soʻzlar: Badiiy tasvir, personaj, badiiy tafakkur, xarakter, peyzaj, interyer, portret, voqealar rivoji, muallif, pragmatik xususiyat, badiiy ideal.

Ключевые слова: Художественный образ, характер, художественное мышление, характер, пейзаж, интерьер, портрет, развитие событий, автор, прагматический характер, художественный идеал.

Keywords: artistic image, character, artistic thinking, character, landscape, interior, portrait, development of events, author, pragmatic feature, artistic ideal.

Har qanday badiiy asar muallif badiiy tafakkurining mahsuli sifatida dunyoga keladi. U kitobxonning qoʻliga tushgach, oʻquvchining tafakkur mulkiga aylanadi. Natijada yozuvchi va oʻquvchi oʻrtasida oʻziga xos muloqot yuzaga keladi. Bu gʻoyibona suhbatdoshlarning bir-birlarini tushunishi va his qilishida asardagi badiiy tasvirning oʻrni beqiyos.

Badiiy adabiyotda tasvir juda muhim va koʻp qirrali tushunchadir. Badiiy tasvir borliqdagi mavjud narsa, hodisa, predmetlarning ijodkor tomonidan badiiy asar tarkibida qayta aks ettirilishi boʻlib, u quyidagi pragmatik xususiyatlarga ega boʻladi:

- yozuvchining badiiy niyatiga mos muhit yaratish;
- kitobxonni muayyan gʻoyani idrok etishga tayyorlash;
- hayotiylikni taʼminlash;
- xarakter mantigʻini ochib berish;
- muallifning badiiy idealini aks ettirish;
- konflikt yaratish;
- voqealar rivoji mantigʻini tushunish;
- voqealar rivojini taʼminlash kabi.

Romanchilikning tamal toshi sohibi Abdulla Qodiriy “Oʻtkan kunlar” romanida ona tilimizning cheksiz ifoda imkoniyatlaridan sanʼatkorona foydalanib, badiiy tasvirning goʻzal namunalarini yaratgan. “1264-yil xijriya dalv oyining 17-

qishki kunlarining biri, quyosh botqan tevarakdan shom nomozi eshitiladir...” [1] Mazkur tasvir o`ziga xos ramziylikka ega. U yozuvchining badiiy niyatiga mos muhit yaratish va kitobxonning diqqatini asl maqsadga yo`naltirish vazifasini bajaradi, ya`ni asarning shunchaki “bir muhabbat qissasi” tarzida qabul qilinmasligi kerakligiga ishora qiladi. *Qish* va *shom* tasviri yurt boshidagi zulmat va bu romanning tugallanmagan qismi fojia bilan yakunlanishiga ishora etadi. Albatta, o`quvchi bu kabi ishoralarni anglab yetishi uchun muallif shaxsiyati va asar yaratilgan davr haqida ma`lum bir bilimga ega bo`lishi kerak. Zero, adabiyotshunos Rahmon Qo`chqor ta`kidlaganidek, “...biz faqat tushunmoqchimiz, iste`dodli yozuvchi va uning otalarimiz o`tmish va taqdiri haqida yozgan asarlarinigina emas, balki bu muallifga ta`sir etgan, uning sig`ingan haqiqatlarini shakllantirgan turli hayotiy va siyosiy omillarni, asarning yozilishiga sabab va material bo`lgan manbalarni va ularning talqinidagi mantiqni anglamoqchimiz”. [2]

Badiiy adabiyotda tasvirning tashqi va ichki turlari ham farqlanadi. Zamon, makon, peyzaj, interyer, portret kabilar tasvirning tashqi turiga kirsa, qahramonlarning ruhiy holati, fe`l-atvori va ularning ma`naviy olami, xarakteri tasvirning ichki turiga mansub. Qodiriy tasvirning har ikki turidan mohirona foydalangan. Ayniqsa, qahramonlar tasviri uning badiiy idealini yorqin aks ettirishga xizmat qilgan. Yozuvchi asar qahramonlarining ismlarini ham bejiz tanlamagandek go`yo, chunki personaj va nom o`zaro uzviy bog`liq. Yusufbek hoji Otabekning padari buzrukvori bo`lib, *ho`p aqllik, ko`pni ko`rgan, din-diyonatli*, zamonasining yetuk shaxslaridandir. Shu bois unga payg`ambar ismi Yusufning berilishi o`zini oqlaydi. Voqealar bayoni davomida berilgan barcha tasvirlar bunga dalil bo`la oladi.

“Oq nozik qo`llari bilan latif burnuning o`ng tomonida tabiatning nihoyatda usta qo`li bilan qo`ndirilgan qora holi....., quyuyq jingala kiprik ostidagi tim qora ko`zlari,bir nuqtaga tikilganda nimanidir bir narsani ko`rgan kabi..., qop-qora kamon otib ketgan nafis qiyig` qoshlari “ tarsida berilgan tasvir har birimizning ko`z o`ngimizda Kumushni gavdalantiradi.

Asardagi ayrim tasvirlar kitobxonni o`ylantiradigan va e`tiroziga sabab bo`ladigan voqealar rivoji mantig`ini tushunishga yordam beradi. Xususan, Otabekning ota-onasi tomonidan ikkinchi bor uylantirilishiga munosabati *“bir bechorag`a ko`ra bila turib jabr va xiyonat...”* bo`layotganini, Zaynab *“qarshisida bir jonsiz haykal”* tarzidagi badiiy tasvirlar orqali ifodalanadi, biroq o`sha davr an`analari sabab ota-onasining rayiga qarshi bora olmaydi.

Qodiriy oshiq Otabekning ayriliqdagi holatini tasvirlashda ham o`ziga xos yondashadi. *“.....uzoqda qo`sh haydab yurgan yigitning ashulasi eshitiladir”* , *“agar ishq dashtida Majnun uchrasa boshidagi ming savdoni korib holiga yiglashini dalillaydi”* tarzidagi ifodalar kitobxonni ishontiradi. Oshiqning hijron azobidagi og`ir ahvolini bundan ortiq tasvirlash mumkunmi?

Bilamizki, Qodiriy odam ruhiyatini nozik ilg`ay oladigan va ayni paytda shunday nozik tasvirlar bilan yetkazib bera olgan adibdir. Zero, “....badiiy

adabiyot soʻz vositasida tasvirlaydi, ayni paytda, badiiy adabiyotdagi tasvir quruq emas, u his-tuygʻularga yoʻgʻrilgan shu tasvir orqali muayyan oʻy-fikr, his-kechinma ham ifoda etiladi”. [3] Shuning uchun ham Kumushning oʻlimi sahnasi hech bir kitobxonni befarq qoldirmaydi, uni ham koʻzga yosh olishga majbur qiladi. Shu sabab har bir kitobsevar unga qayta-qayta murojaat qilaveradi va har gal undan yangi-yangi topilmalarni topaveradi, maʼnaviy-ruhiy ozuqa olaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – T.:” Info Capital Group”, 2017, 31-bet.
2. Rahmon Qoʻchqor. Men bilan munozara qilsangiz. -T .:“Ma'naviyat”, 1998, 34-bet.
3. Quronov D., Mamajonov Z. , Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lugʻati. T.: Akademnashr, 2010, 52-bet.